

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan 2022 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot

“O‘zavtosanoat” AJ tarmoq korxonalari tomonidan 2022 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi belgilangan 46 253,7 mlrd so‘m prognoz amalda 49 834,3 mlrd so‘m, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 144,4 foizga yetib, belgilangan reja ko‘rsatkich bajarilishi 107,7 foizni tashkil etdi.

Asosiy mahsulot turlari bo‘yicha:

“O‘zavto Motors” AJda yengil avtomobil' ishlab chiqarish rejasi belgilangan 325 000 dona o‘rniga, amalda 327 639 donaga yetib, reja bajarilishi 100,8 foizni tashkil etdi (o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 139,0 foiz).

Huddi shunday, ISUZU turidagi yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish rejasi belgilangan 4 165 dona o‘rniga amalda 4 192 dona (reja bajarilishi 100,6 foiz, o‘shish sur‘ati 98,6 foiz), MAN, Sinotruck turidagi yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish belgilangan

573 dona reja amalda 574 dona (reja bajarilishi 100,2 foiz, o‘shish sur‘ati 153,1 foiz), Kamaz yuk avtomobillari ishlab chiqarish rejasi belgilangan 606 dona o‘rniga amalda 685 dona (reja bajarilishi 113,0 foiz,

o‘shish sur‘ati 84,8 foiz) hamda yengil tijorat avtomobillari ishlab chiqarish rejasi belgilangan 423 dona o‘rniga amalda 457 donani tashkil etdi (reja bajarilishi 108,0 foiz).

Horijiy davlatlarga 2022 yilda jami 553,8 mln dollarlik mahsulotlarning eksporti amalga oshirildi (o‘shish sur‘ati 136,1 foiz).

Hisobot davrida 5 ta loyiha doirasida 199,3 million dollar miqdoridagi investisiyalar o‘zlashtirildi, reja bajarilishi 126,5 foiz.

Shu bilan birga, 2022 yilning 18 iyulida “UzAuto Motors” AJ Asaka shaxridagi zavodida Chevrolet Tracker avtomobilini ishlab chiqarishni boshladi.

“UzAuto Motors Powertrain” AJ zavodi “CSS Prime” dvigatel' yig‘ish liniyasida rejaga muvofiq 2022 yil 1 dekabr' kundan boshlab L4H AT va LIF MT dvigatellarining seriyali ishlab chiqarilishi boshlandi.

22 dekabr' kuni CSS Prime dvigatellarning seriyali ishlab chiqarish rasmiy ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Mahalliy lashtirish dasturi doirasida jami 37 loyiha bo‘yicha 5 676,2 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Mahalliy lashtirish darajasini oshirish maqsadida korxonalar tomonidan import qilinayotgan 1 023 turdagi detallar o‘zlashtirildi.

2022 yilda tarmoq korxonalari tomonidan jami 4 186 ta yangi ish o‘rinlar yaratildi.